
Bolalarga Prezident sovg'alari topshirildi

Yangi yil bayrami munosabati bilan har yili oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari, ota-ona qarovisiz qolgan o'g'il-qizlar va xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari farzandlariga Prezident sovg'asi tarqatiladi.

Bugun Qo'shtepa tumanidagi Madaniyat markazida bo'lib o'tgan tadbirda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazida vasiylik va homiylik ro'yxatida turgan 61 nafar hamda tumandagi oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan 8 nafar, jami 69 nafar yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan yetkazib berilgan Prezident sovg'alari topshirildi.

Tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev va tuman sektor rahbarlari ishtirok etib, bolalarni Yangi yil bayrami bilan tabrikladi. Ularga davlatimiz rahbarining Yangi yil bayrami tabrigi, turli xil shirinliklar, o'quv qurollari, skuterlarni o'z ichiga olgan Prezident sovg'alari topshirildi.

2024-12-26 08:18:58